



O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqarib boshlagan

2006-yil 25 - 31 - dekabr N:52 (66593)

Muassislar:

O'zbekiston matbuot va
axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq
ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» Yoshlar
ijtimoiy harakati,
«SOG'LOM-AVLOD
UCHUN» hukumatga qarashli
bo'lmagan xalqaro xayriya
jam'iasi.



SAHIFALARDA

SHUNDAYLAR
BO'LMASA AGAR
DUNYODA...



2 -BETDA
YANGI YIL
HANGOMALARI



5 -BETDA
YOZILMAGAN
KITOB

6 -BETDA



YOSHIMIZGA YOSH QO'SHAR BAYRAM

—Ismimni bobojonim qo'rganlar. Ular O'zbekiston qahramoni. Katta bo'lsam men ham ular singari mashhur odam bo'lsam. Oyijonim menga ko'p kitoblarni olib bergan. Hali sen o'qishni bilmaysan-ku, deysizmi? To'g'ri, harflarni endi o'rganayapman, lekin kitoblardagi hayvonlarning barchasini nomini bilaman. Masalan, Quyon, Olmaxon, Maymun, Jirafa, Yo'lbars, Bo'ri, ayyor Tulki...

Qiziq, Tulki nega ayyor ekan-a? Bilmasdan ayyorlik qilib qo'ysa kerak-da... Rasmiga qarasangiz, chiroyli turibdi...

— Men hali uch yoshga ham to'lmagan Barchinoy bilan gaplashar ekanman, uning ziyrakligi, burro-burro gapirishi-yu ko'zlarini pipiririb beg'ubor qarab turishi qalbimni zavqlarga chulg'ardi. Axir quvonmay bo'ladimi?! Chunki ertamiz egalari, olamimiz bekalari idrokli bo'lsa, turmushimiz farovon bo'ladi. Axir fahm-

u farosatli, nafosatli va ismi jismiga monand Oyibarchin qizlarimiz g'ururimiz, xotirjamligimiz indallosidir!

U qo'shiq tinglashni ham bilarkan. Qo'shiqni tushunib ohangiga monand harakat qilishlari ham o'ziga yarashgan. Ayniqsa, xorazmcha, arabcha, hindcha raqslarni ijro etayotgan qizaloqning chaqqon harakatlari ko'rib hayratlanasiz.

Telefon jiringlasa, dastagini o'ng qo'lida ushlab turib, o'g'il bolaning ovozi eshitilsa «aka», qiz bolaning ovozi eshitilsa «opa», deya ta'kidlayotgan biyrongina Barchinoy xalqimizning zukko shoiri Abdulla Orpovning nabirasi bugun barcha tengdoshlarini, bobojonlar-u buvijonlarimizni shitobla ot solib kelayotgan yangi yil bilan tabriklaydi va:

**Yoshimga yosh qo'shar,
Bayramlar ko'p bo'lsin,
Sovg'alar ulashar,
Ayyomlar ko'p bo'lsin!** -deydi.

«2007-yil – Ijtimoiy himoya yili»

SAFLANING, OLG'A BORING!

Aziz bolajonlar, kirib kelayotgan yangi «2007-yil – Ijtimoiy himoya yili» deb nomlangani sizga ma'lum.

Ijtimoiy himoya nima ekanini bilasizmi?

Bu – sizlar uchun buyuk imkoniyatlar eshigining lang ochilgani degani.

O'qib, uqib, izlangan – tolega yetishishi muqarrar degani.

Iqtidorli, iste'dodli, sportga oshnolar jahonga yana-da tez chiqadi degani.

Layoqatingiz loyiq taqdirlanadi degani.

O'zingiz muvaffaqiyat og'ushida ko'klarga ko'tarilayotganingizda yon-atrofdagilarni ham tortishingiz zarur, degani.

Yordamga muhtoj, nogiron do'st-birolarlaringizga yordam qo'lingizni cho'zib, yelkama-yelka turib, ozodligimizni asrang, mustaqilligimizni mustahkamlash yo'lida dadil odimlang, degani. Chunki:



—Mamlakatimiz aholisining qariyb yarmini tashkil qiladigan yoshlarimizning hayoti manfaatlarini ta'minlash – bu ularning zamonaviy ta'lim va tarbiya olishi, zarur kasb-hunarlarini egallashi bo'ladimi, ish o'rniga ega bo'lishi, o'z qobiliyati va salohiyatini yuzaga chiqarishi uchun imkoniyat yaratish bo'ladimi, yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash, oyoqqa turishida ko'mak berish bo'ladimi – bu masalalarning barchasi biz uchun eng muhim va ustuvor vazifa bo'lib qolaveradi, - deydi yurtboshimiz

Islom Abdug'aniyevich KARIMOV.

YANGI YILI!

Yana bir yil o'tdi bir yilda,
Lahzaday tez, qordayin yengil.
Ko'ngillarni zavqlar to'ldirib,
Kirib keldi yana Yangi yil.

Ulkanlashib borar orzular,
Tark etadi dilni g'ussa-g'am.
Tilaklarning bari samimiy,
Bari qat'iy, bari mustahkam.

Har chehraga tabassum ingan,
Har chehra ham kunday yorishar.
Xush kayfiyat etadi izhor,
Dilni xushnud etar qarashlar.

Xalqim, dildan toshar hayajon,
Ko'ngil sira bilmaydi hudud.
Asli har bir kunning bayramdir,
Har daqiqang xushsurat, xushnud.

Nozimaxon UBAYDULLAYEVA,
Toshkent shahridagi 193-o'rta maktabning
9-sinf o'quvchisi.



SHUNDAYLAR BO'LMASA AGAR DUNYODA...



Toshkent shahrining Uchtepa tumanida 106-maktab bor. Unda bilimdon-u zukko o'quvchilar bisyor. Ayniqsa, 4-«V» sinf o'quvchilari haqida shoz borgudek bo'lsa, barcha o'qituvchilarning, hatto maktab rahbarining ham chehrasi yorishib ketadi. Chunki sinfdagi 41 o'quvchidan 10 nafari a'lo, 25 nafari yaxshi baholarga o'qiydigan o'g'il-qizlar-da. Ularning ahil-inoqliklari-yu zukkoliklarini aytmaysizmi?! Yuqori sinflarda ularga rahbarlik qilish ishtiyoqidagi o'qituvchilarning ko'pligi ham shundan. Ulardek a'lochi, odobli o'quvchilarni o'qitishni kim ham xohlamaydi deysiz?!

«Bu sinf o'qituvchisi Ma'muraxon Yaylovaning o'quvchilardan omadi chopgan-da», deb qo'yishadi gohida. Menimcha, o'quvchilarning ustozdan omadlari chopgan. Chunki bolajonlarning har bir yutug'i, olgan «yaxshi» va «a'lo» baholari zahirida o'qituvchining mehnatlari, uyqusiz turlari, tinimsiz izlanishlari yotadi-ku, aslida...

Vaqtning o'tishini qarang, Ma'muraxon oliygohni tamomlab, mana shu dargohda ish boshlaganiga ham 15 yildan oshibdi. Ustozlari Xalq ta'limi a'lochisi Marg'uba opa Isomuddinova hamda boshlang'ich sinflarning katta va iqtidorli o'qituvchisi Dilbar opa So'pixonovalardan o'rganganlarini tajribalari asosida boyitib boryapti. O'quvchilari maktabga shunchaki kelib-ketmay, har kuni biror narsani o'rganib ketishlari uchun astoydil harakat qiladi. Ko'rik-tanlovmi,

tadbirmi, mashg'ulotmi o'tkazmagan kuni yo'q hisobi. Bunday qiziqarli kechalarda nafaqat o'quvchilar, ularning ota-onalari ham bajon-u dil ishtirok etishadi. Yaqinda uning darslari kuzatilib, «Ona tili va o'qish darslarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish» mavzusidagi ish tajribasi tuman bo'yicha ommalashtirishga loyiq deb topildi. Ochiq darsda o'quvchilari «O'zbekim», «Javohirlar» hamda «G'urur» nomli guruhlariga bo'linib, o'zaro bellashdilar. Kichkintoylarning yod olgan she'r va matnlarini biyron-biyron aytishlari darsni kuzatayotgan ustozlar-u ota-onalarga juda manzur bo'ldi. Kecha ishtirokchilari ustozning mehnatlari, yutuqlari haqida to'liqlanib gapirishsa, u esa shogirdlarini maqtash bilan ovora:

-Erishgan ozmi-ko'pmi yutuqlarimni o'quvchilarim hamda ularning ota-onalariniki ham deb bilaman,-deydi mehr bilan shogirdlari boshlarini silab Ma'muraxon. -O'quvchilarimda bilimga ishtiyoq bo'lmaganida, ota-onalari farzandlarining ta'lim-tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratishmaganida, qolaversa, nimaki ish qilsam, menga hamfika, qanot bo'lmaganlarida bu natijalar qayda edi?..

Ma'muraxondagi kamtarlik, kamsuqumlik fazilatlarini ilg'ab, hecham hayratlanmadik. Chunki fidoyi, mehridaryo ustozlarning shunday bo'lishlariga ko'nikib qolganmiz-da. Axir shundaylar bo'lmasa, ustozlar bunchalik mo'tabar, aziz va ardoqli bo'lisharmidi?!

Feruza JALILOVA.

Suratlarda: Mehridaryo ustoz-u ibratli sinf o'quvchilari hayotidan lavhalar.




Ustoz ijodi SHOSHMA, QUIYOSH!

G'afatda qoldiray deb,
Uyg'otmadim quyoshni.
Boplayman deb sevinam,
U dast ko'tardi boshni.

Hali erta qayt dedim,
Bor, ko'rpangga yot, dedim.
Buyurdim ajablanib,
Do'q urdim g'azablanib.

Yalingandim kechgacha,
Ortga qaytmadi picha.



DAYDI SHAMOL



Dam u yondan,
Dam bu yondan,
Esaverar
Daydi shamol.

Bilmasmikin
Daydi shamol-
Qayda janub,
Qayda shimol?

KUZ

Bobo quyosh toliqib,
Uyqudan kech turdi-ku.
Shosha-pisha otini,
Yaqin yo'lga burdi-ku.



Ot tuyog'in zarbidan,
Yuz-ko'zi to'zib ketdi.
Changga meshdan suv sepib,
Bulutlar suzib ketdi.

«XALOSKOR» AKA

Ikki qo'lda muzqaymoq,
Ali uyga yo'l oldi.
O'z hissasini yeb bo'lib,
U chuqur o'yga toldi.

-Muzqaymoq totli juda,
Lekin ukam shirinroq.
Muzli taom yesa gar,
Og'riydi qorin, tomoq.

Men kattaman, kuchliman,
Dardga turaman mahkam.
Hissasini yeb qo'ysam,
Darddan xalosdir ukam.

Nasimjon MAMADALIYEV,
Namangan viloyati, Uychi tumani,
7-o'rta maktab o'qituvchisi.

XALQ ENDI YAXSHIQ YIG'IRM!



Yana bir haftadan so'ng o'z poyoniga yetadigan yilimiz hayotimda unutilmas voqealarga boy bo'ldi. Ana shunday quvonchli kunlardan biri yaqinda bo'lib o'tdi. Respublika Xotin-qizlar qo'mitasida Zulfiyaxonim qizlarining anjumani o'tkazildi. Unda «Zulfiya» nomidagi Davlat mukofotini olgan 98 nafar qizlar ishtirok etishdi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «Kamolot» yoshlar Ijtimoiy harakati hamda O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasining «Hamkorlik» dasturiga asosan respublika umumta'lim maktablari o'quvchi-qizlari o'rtasida e'lon qilingan «Zulfiyaxonim kim va uning nomiga qanday qizlar sazovor bo'lishlari mumkin?» nomli insholar tanlovida g'oliblikni qo'lga kiritgan sakkiz nafar qizlar ham anjuman qatnashchilariga aylanishdi. Ular orasida men ham bor edim. Anjumanni «Baxtiyor Ona» monumenti poyiga guldastalar qo'yishdan boshladik.

Barchamizni homiyilar tomonidan tashkil qilingan qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlashdi. So'ngra, «Xalqlar do'stligi» saroyi sari yo'l oldik. U yerda respublikamizning

iqtidorli yoshlari hamda «Zulfiya» nomidagi Davlat mukofoti sohibalari ishtirokida «Istiqbolimiz timsoli» yoshlar anjumani bo'ldi. Unda Senator, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari, Xotin-qizlar qo'mitasi raisi Svetlana Inomova barcha g'oliblarni samimiy qutladilar. Kecha ishtirokchilari Zulfiyaxonim qizlarining ardoqli shoiramizga atalgan she'rlari, qo'shiqlarini maroq bilan tinglashdi.

Bunday ajoyib tadbirlar shoira izidan borayotgan biz ijodkor qizlarni ham yana-da ilhomlantirib yubordi. Zulfiyaxonim qizlari bilan birgalikda o'tgan «Bo'ston» sihatgohidagi dam olish kunlarimiz ham juda maroqli kechdi.

Biz yoshlarga shunchalar e'tibor qaratayotgan hukumatimizdan behad minnatdor bo'lib, bunga javoban yurtga munosib farzand bo'lishni, 2007-yilda Zulfiyaxonim qizlari safidan o'rin olish uchun astoydil harakat qilishni ko'nglimga tugib qo'ydim.

Dilrabo DO'STQOBILOVA,
Toshkent shahar, Yakkasaroy tumanidagi
118 - maktabning 9 - «A» sinf o'quvchisi.




15TH ASIAN GAMES

DOHA 2006

Aziz bolajonlar, xabaringiz bor, 1 - 15-dekabr kunlari Qatar poytaxti Dohada XV Osiyo o'yinlari bo'lib o'tidi. Bu o'yinlarni muntazam kuzatib borgan bo'lsangiz kerak, shunday emasmi? Turli bahslar-u tortishuvlarga boy bo'lgan bu musobaqada qit'aning 45ta mamlakatidan kelgan 13.500 nafar sportchilar sportning 40dan ortiq turlari bo'yicha bellashib,

o'z yurtlari sharafigini himoya qilishdi.

Musobaqada 243 nafar yurtdoshlarimiz sportning 31 turi bo'yicha bahslarda ishtirok etishdi va 11ta oltin, 14ta kumush va 14ta bronza medali bilan umumjamoa hisobida yettinchi o'rinni egallashdi.



Dastlab oltin medallarni akademik eshkak eshish bo'yicha jamoamiz vakillari qo'lga kiritdilar. Juftliklar o'rtasida 1000 metrgacha bo'lgan musobaqa finalida Vladimir Chernenko hamda Ruslan Naurzaliyevga, ayollar o'rtasidagi bellashuvda esa Zarina va Sevara G'aniyevlarga munosib raqib topilmadi.

Yengil atletika bo'yicha Go'zal Xubbiyeva esa 100 metr masofaga yugurishda oltin, 200 metrga yugurish musobqasida esa kumush

medal sohibasiga aylandi.

SPORTCHILARIMIZ TUHFASI

Baydarka va kanoeda eshkak eshish musobaqasida Vadim Menkov «S-1» rusumli qayiqda 1000 metrli masofaga, Yuliya Borzova esa «K-1» rusumli qayiqda 500 metr masofaga bo'lgan musobaqalarda oltin medallarni qo'lga kiritishdi.

Bir necha marta Osiyo chempioni bo'lgan, Jahon chempionati hamda Pusanda o'tgan XIV Osiyo o'yinlari sovrindori, karatechi qizimiz Sofiya Kaspo'latova finalda Birlashgan Arab Amirliklari vakilasi Mayta al Maktum ustidan g'alaba qozonib, terma jamoamiz zaxirasiga o'z oltin medalini qo'shib qo'ydi.

Boks bo'yicha yuqori natijalarga erishgan sportchilarimizdan Sidney Olimpiadasi bronza medali sovrindori Rustam Saidov finalda bo'lib o'tgan bahslarda qozog'istonlik raqibi Muxtorjon Dildabekovni mag'lubiyatga uchratib, oltin medal sohibiga aylandi. Shuningdek, Bahodir Sultonov, Elshod Rasulov singari sportchilarimiz ham Osiyo o'yinlari chempioniga aylanishdi.

Yunon-rum kurashi bo'yicha qatnashgan vakillarimiz ham bo'sh kelishmadi. Eng iqtidorli polvonlarimizdan biri sanalgan Dilshod Mansurov saralash bahslarini muvaffaqiyatli o'tkazib, finalda Koreya xalq demokratik respublikasi polvoni Guk Xyun Jongni mag'lubiyatga uchratib, oltin medalga sazovor bo'ldi.

Erkin kurash bo'yicha dunyoga tanilgan o'zbekistonlik sportchi Artur Taymazovning mahoratiga qoyil qolmaslikning iloji yo'q. U eronlik raqibi Fardun Masumiyni qirg to'qqiz soniya ichida yengib, g'alaba shohsupasiga ko'tarildi.

Bunday ko'rsatkichlarga erishish kishidan bukilmas iroda va ko'p mehnat talab qiladi. Siz ham mana shunday yuqori ko'rsatkichlarga erishmoqchi bo'lsangiz, sport bilan muntazam shug'ullaning, sizga ham turli nufuzli musobaqalarda yurtimiz bayrog'ini baland ko'tarish nasib etsin!

Ozoda TURSUNBOYEVA tayyorladi.

MEDALLARI SHODASINI BIR KO'RING



Ko'ksilarini shoda-shoda medallar bezab turgan mana bu o'g'il-qizlar Buxoro viloyati, Shovot tumanidagi 2-maktab-internatda tahsil olishadi. Sportsevar bu bolajonlar murabbiylari Rustam To'rayevdan sportning kurash turidan saboq olib kelishyapti. Murabbiylari ishonchini oqlashga astoydil harakat qilayotgan bu shovvozlar «Umid nihollari» sport musobaqasining tuman, viloyat hamda respublika bosqichlarida qatnashib, yuqori natijalarni qo'lga kiritishdi.

Suratga boqib, medallaringiz shodasi yana-da ko'paysin, yurtimiz dovrug'ini dunyoga tarating, kelajagimiz egalari, degimiz keldi.

Ruslan MIRZAYEV.

BO'LG'USI SPORT YULDUZLARI

Toshkent shahar, Hamza tumanidagi futbol maktab-internatida ayni kunlarda 225 nafarga yaqin bolajonlar tajribali murabbiylari boshchiligida sport sirlarini qunt bilan o'rganishmoqda. Maktab-internatga 5-sinfidan boshlab o'quvchilar qabul qilinadi. Maskanda bo'lg'usi sport yulduzlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Mashg'ulotlar xonasi, trenajor, tibbiyot xonalari, shinam oshxona, yotoqxona - barcha-barchasi bolajonlar ixtiyorida. Bu hali hammasi emas. Hamza tumani hokimiyati, Toshkent shahar hokimligi va «Bolalar sportini rivojlantirish» jamg'armasi homiyligida qurib bitkazilgan sport majmuasi bolajonlar uchun kutilmagan sovg'a bo'ldi. Bu xayrli ishda «Elekom», «Yog'-moy kombinati», «Sirdosh qurilish», «Mahalla jamg'armasi», hokimiyat qoshidagi obodonlashtirish boshqarmasi, Hamza tumani Xalq ta'limi bo'limi, «Maxsus trans», soliq inspeksiyasi, issiq suv ta'minoti kabi qator korxona va tashkilotlar ham maktabdan o'z yordamlarini ayamadilar.

Ta'lim maskanining Olim Xolboyev, Bahodir Dadamuhamedov, Ruslan Valiulin, Aleksey Bogdanov kabi bitiruvchilari bugungi kunda ko'plab nufuzli jamoalarda to'p surishmoqda.

- Futbol -

internatimizda kimyo fanlari nomzodi Nosir Muhammedov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan murabbiy Vyacheslav Alpatov, «Shuhrat» medali sohibi

Oleg Adilbayev kabi ustozlarning berayotgan saboqlaridan o'quvchilarimiz mamnun.

-Sportsevar bolajonlarimiz Qozog'istonning Karatau shahrida o'tkazilgan xalqaro musobaqada qatnashib, III o'rinni qo'lga kiritishdi. Diyorimizda internatlararo bo'lib o'tgan futbol musobaqasida I o'rinni, noyabr oyida bo'lib o'tgan «Oltin kuz» nomli Xalqaro turnirda ham I o'rinni egallashdi, -deydi quvonch bilan ta'lim maskani rahbari Ma'mur aka Saidqosimov.

Maktab-internatdagi shart-sharoitlar bilan tanishar ekanmiz, uning ham, bu yerda tahsil olayotgan sportsevar bolajonlarning ham kelajagi porloq ekanligiga amin bo'ldik.

Salimjon INOMZODA.

Qahramon bilan sinfdoshimiz. Uning boshqa bolalardan ajralib turadigan bir talay fazilatlar bor. Barcha fanlardan «a'lo» va «yaxshi» baholarga o'qiydi. Shuning uchunmi, ikkalamiz qalin do'stimiz.

U sportning «Kikboks» turiga qiziqadi. Ikkinchi sinfdaligidayoq bu sport turi bilan jiddiy shug'ullana boshlagan edi. Tinimsiz mashqlar o'z samarasini bera boshladi. Qahramon Ergashev 2004-yili Surxondaryoda o'tkazilgan O'zbekiston chempionatida 28 kg. vaznda o'tkazilgan musobaqada II o'rinni egallab «kumush» medalga sazovor bo'lgan bo'lsa, 2006 - y il da O'zbekiston chempionatida «oltin» medalni qo'lga samarasini ko'rsatdi.

2006 - y il

2005-yil I o'rinni egallab, kiritdi. Intilishlar o'z Shu bois ham Qahramon dekabr oyida bo'lib o'tgan Respublika chempionatida ishtirok etib, faxrli I o'rinni egalladi. Uning «oltin» medal sohibi bo'lganini eshitgan oila a'zolari va murabbiyi Rashid Akalbayevning quvonchlari cheksiz edi. Ayniqsa, uni o'z farzandidek ko'radigan murabbiyi, u bizning qahramon, deydi shodlanib.

-Qayerda bo'lmay, jangga kirishdan oldin onajonim o'rgatganlaridek avvalo Ollohdan, Vatanim, ustozlarim, do'stlarim oldida yuzimni yorug' qilishini astoydil so'rayman, keyin esa, so'nggi nafasimgacha g'alaba qozonish uchun bor kuchimni sarflayman, -deydi Qahramon Ergashev.

Biz barcha sinfdoshlar chempion do'stimiz bilan faxrlanamiz.

Shahzod TO'RAYEV, poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 302-maktabning 7-«A» sinf o'quvchisi.

BIZNING QAHRAMON

YANGI YILDAN YOTOQXONA KUTAMIZ

Elmira Ismoilova va Mastura Tog'ayevlar Navoiy tibbiyot kollejida tahsil olishar ekan. Yoshligidanoq egnilariga oppoq xalat kiyib, insonlarni davolashga bel bog'lagan - bu qizlar: - Ta'lim maskanimizda puxta bilim olishimiz uchun barcha sharoitlar yaratilgan, deyishadi. - Ammo, qaniydi yotoqxonamiz ham bizning talabimizga to'liq javob bersa! Chunki yotoqxonamizda yashashimiz uchun qulay sharoit yo'q. Shuning uchun bizlar ijarada turamiz yoki uyimiz uzoq bo'lsa-da, qatnab o'qiymiz. Ko'pincha kech qolib ketamiz, uyimizdagilar esa bizdan xavotirlanishadi. Qizlarning ta'kidlashlaricha, kollejda 2500 nafarga yaqin talabalar tahsil olishar ekan. Zora ularning orzulari yangi yilda ijobat bo'lsa.

Jamila HAYDAROVA.

ARALASH-QURALASH

Mening bir sinfdoshim bor. Uning ismi Shokir, familiyasi Esonboyev. Asli sirdaryolik bo'lib, u juda saxovatli bola. Biz har yili 101-«Mehribonlik uyi»ga sovg'a-salomlar qilamiz. Bu yil ham har kim qurbi yetganicha pul to'play boshladi. Lekin Shokir yana boshqalarga qaraganda ko'p pul berdi. Men undan shuncha pulni qayerdan olding, deya so'raganimda:

SHOKIRGA BALLI!

-Biz otam bilan fermer xo'jaligimizdagi 30 gektar yerimizni haydab, paxta ekamiz. So'ng yig'ib, davlatga topshirib pulini olamiz. Ushbu mablag'dan kam ta'minlangan oilalarga hayit va boshqa bayramlarda sovg'alar yoki moddiy tomondan yordam berib turamiz, - dedi.

Rostini aytсам, men bu sinfdoshim bilan faxrlanib ketdim. Qaniydi boshqalar ham unga o'xshasa.

Marjona TURSUNOVA, talaba.



BOBOJONIM O'GITI

Ona tabiat, borliq latif qish saltanati og'ushida. Zaminni oppoq, mayin qor qoplagan. Qorbo'ron o'ynayotgan bolalarning quvnoq, sho'x-shodon kulgularidan zavqlanib uyga kirsam, 70 yoshli bobojonim xayollar olamiga g'arq

bo'lib o'tiribdilar.

-Bobojon, yana nimalarni o'ylab o'tiribsiz?-savolga tutaman ularning nurli chehralariga mehr-la boqib.

-E, bolajonim, nimaniyam o'ylardim, o'tayotgan umrimni sarhisob qilib o'tiribman-da. Esimni tanibmanki, daladan beri kelmadim. Bolaligim suronli urush yillariga to'g'ri keldi. Maktabda o'qib, ilmi inson bo'lishni orzu qilardim. La'nati urush tufayli...

Bobojonim urush xotiralaridan so'zlaganlarida nurli yuzlari tundlashib, ko'zlaridan g'azab uchqunlari taralardi.

-Bobojon, yana bolaligingizni gapirib bering, -deya qistovga ola boshlaydi yonimga kelib o'tirgan uka va singillarim.

-Mening bolaligimni qo'ying, siznikidan gaplashaylik, -deydilar bobojonim yoshli ko'zlarini bizga sezdirmaygina artib. -Siz juda baxtiyor avlodsiz. Qo'lingizni qayerga uzatmang, yetadi. O'qiyman deysizmi, hunar o'rganaman deysizmi, hamma sharoitlar muhayyo. Yildan-yilga turmushimiz yana-da farovonlashib borayapti. Kelayotgan 2007-yilimizni yurtboshimiz tomonidan «Ijtimoiy himoya yili» deb atalishining zamirida ham siz-u bizning, qo'yingchi, xalqimizning manafaatlari yotibdi. Shularni o'ylab, xursand bo'lib ketaman-da, bolajonlarim. Bunday mehribonchiliklarga javoban siz ham alo' baholarga o'qib, yurtimiz koriga yaraydigan o'g'il-qizlar bo'lib ulg'ayishingiz lozim...

Yumushlarimni tugatib, darsxonamga kirsam, har kuni ko'chadan beri kelmaydigan uka va singillarim berilib dars qilishyapti. Bobojonimning nasihatlari zoye ketmabdi-da, deb qo'ydim ichimda.

Ishqilib, bobojonimning umrlari uzun bo'lsin-da. Bizlarga bosh bo'lib maslahat-u o'gitlarini berib yuraversinlar.

Nargiza MURODOVA, O'zMU qoshidagi akademik litsey talabasi.

TANGEMGA HAVASIM KELDI

Keyigi paytlarda televizor orqali ko'plab seriallar berilayapti. Ularning orasidan menga ko'proq koreya kinoijodkorlari yaratgan «Saroy javohiri» nomli film juda yoqdi. Chunki Tangemning o'zini tutishi, kiyinishi, madaniyati, soch turmaklashi-yu pazandaligi barcha qizlarga o'makdir. Qolaversa, nega o'zbek kino ijodkorlari momolarimiz tarixidan shunday asar yaratishmaydi? Axir meditsinadan tortib, televideniye Vatani ham O'zbekiston-ku! Tangemning qiziquvchanligi, boshqalardan hech qachon yordamini ayamastligi menda katta taassurot qoldirdi. Ochiq'ini aytсам, unga havasim keldi. Mening ham unga o'xshab aqlli, farosatli, izlanuvchan bo'lgim keladi. Bunday xislatlarga ega bo'lish biz o'zbeklarga ham xos-ku, shunday emasmi?

Komila ABDULLAYEVA, Termiz tumanidagi 28-umumiy o'rta ta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi.

SOVG'ANI O'ZIMIZ YASAYLIK

Aziz tengdoshlarim, hademay barchamiz uchun eng quvnoq bayram bo'lgan Yangi yilni nishonlaymiz. Men bu bayramni «Sovg'alar bayrami» ham deb atagan bo'lardim. Chunki shu kuni Qorbobodan, ota-onalarimiz, yaqinlarimizdan sovg'alar olamiz.

Agar biz ham ularga sovg'a bersak-chi? «Pulimiz yo'q-ku», deysizmi? Men nazarda tutayotgan sovg'alar uchun pulning aslo hojati yo'q.

Biz yaqinda ustozimiz Nasiba opadan applikatsiyalar yasashni o'rganib oldik. Istasangiz, sizga ham o'rgataman:

Rangli matodan yoki qog'ozlardan chiroyli gullar, turli naqshlar, archa, qorboq, qorqiz, qorparecha kabi shakllar qirgib, oq qog'ozga did bilan yopishtiramiz. Applikatsiyalar kartonga yopishtirilsa, juda ko'rkam va chiroyli bo'ladi. Rangli matodan applikatsiya yasash qog'ozdan yasashga qaraganda ancha qiyin. Ehtiyoq qilib yopishtirilmasa, chetlari tezda titilib ketadi.

O'z qo'limiz bilan yasagan bunday sovg'amizni Yangi yil kechasida ota-onalarimizga bersak, ular behad quvonib ketishadi, to'g'rimi?

Xo'sh, ota-onalarimiz uchun sovg'amiz tayyor. Endi kichikintoy uka va singillarimiz uchun sovg'a hozirlash vaqti keldi. Ular uchun mitti kitobchalar yasasak, qanday bo'larkin-a? «Yomon fikr emas», deysizmi? Unda eshiting:

Qoldiq qog'ozlarni yig'ib, taxlab, kitobcha holiga keltiramiz. Muqovasiga qattiqroq qog'oz tanlaymiz. Kitobchamizni ip bilan tikib chiqamiz. Muqovasiga turli rasmlar chizamiz yoki applikatsiyalar yopishtiramiz.

Kitob varaqlariga o'zimiz o'qigan hikoyalari, ertak va she'r-lar, maqol va matallar, tez aytishlar yozib, sevimli qahramonlarimiz rasmlarini chizamiz.

Tayyor bo'lgan kitobchalarimizni zarli qog'ozga o'rta, archa tagiga qo'yib qo'yamiz. Yangi yil kechasida ularni olgan uka va singillarimiz juda quvonib ketishadi.

Maftuna RAHMONBEKOVA, Alisher Navoiy nomidagi Respublika Nafis san'ati litseyi o'quvchisi.



BIR MARTA ISHLATILSA...

Mahallamizga uzoq tumanlardan sut-qatiq keltirib sotadigan onaxonlar bisyor. Ularning og'irini yengil qilayotgan «baklashka»lar ham bor bo'lsin... Bir marotaba ishlatishga mo'ljallangan idish qo'lma-qo'l bo'lganidan hatto oppoq rangli sut xira ko'rinadi. Xaridorlarning beparvoligini aytmaymizmi? Bemalol sotib olaverishadi. Sotuvchi yukining kamayganidan xursand. Endi xalq maqoli bilan «do'ppini olib» aytadigan bo'lsak, o'sha baklashkalar qaysi axlatxonalaridan, ariq-hovuzlardan terilgan. Ichimlik suvidan bo'shatilgan bo'lsa-ku xo'p-xo'p, ayrimlar hatto hojatini chiqarganini ham eshitganmiz. Endi o'ylab ko'ring. O'shanda baklashkalarni turli yuqumli bakteriyalarni o'ldirish uchun qaynoq suvda yuvib bo'ladimi, bo'lmaydi, chunki burushib, qiyshayib ketadi. Shuning uchun ham nomiga iliq suvda chayiladi. Va undagi bakteriyalarni o'ldirmaydi. Shunday ekan, bizning sog'ligimiz qil ustida qolayotgani shubhasiz.

Shuning uchun bo'shatilgan baklashkalarni kesib, maydalab axlatga tashlash kerak.

Siz nima deysiz, aziz o'quvchi?

Nargiza ABDULLAYEVA.

Har safar dadajonim kelajakda kim bo'lmoqchisan, deb so'raganlarida, bilmasam, deb yelka qisib qo'yardim. Endi esa aniq bilaman. Maktabni tugatib, huquqshunos bo'lmoqchiman. Bunga sabab, Andijon shahrida sodir etilgan terrorchilik harakatlarini televideniye orqali tomosha odamlar bo'lishar ekan-da, vahshiylilklarni sodir etishda ishtiroki borligini aslo ularni yurtdoshlarimiz. Axir biz Alisher Navoiy, Temur kabi bobolarimiz beg'oh odamlarni himoya nalarimiz bor ekan. etildi. Tumanimizdagi dentimizning «Biz kimdan kam bo'lmaymiz», degan so'zlari yozib ham mashina minib, zo'r kiyimlar kiyib, ovozi baland qo'l telefonlarini ko'tarib yursak, demak, zo'r bo'lamiz, degan xayolga bordim. Uyga kelib, oyimga o'z fikrlarimni aytgan edim, ular kulimsirab boshimni silaganlaricha shunday dedilar: -Yo'q o'g'lim, gap kiyim-u mashinalarda emas, balki chuqur bilim, aql va idrokda. Qunt bilan o'qib, astoydil harakat qilsang, dunyoning istagan yeriga bora olasan. O'yijonimning bu so'zlarini tinglab, bir g'ayratimga o'n g'ayrat qo'shildi. Kelajakda qay darajada yetuk huquqshunos bo'lishimni bugun maktab partasida olgan bilimim belgilab berar ekan.

MENING ORZUIM

Amirbek ODAMBOYEV, Xorazm viloyati, Xazorasp tumanidagi 1-sonli maktabning 5-«D» sinf o'quvchisi.

YANGI YIL HANGOMALARI



...O'shanda bog'cha yoshidagi qizcha edim. Yangi yil arafasida tarbiyachimiz: - Qorboq soqolini qancha ko'p silkitsa, undan sovg'alar ham shuncha ko'p tushadi, - dedilar. Men soddaligimdanmi yoki sho'xligim tutibmi, guruhimizga kirib kelgan Qorboboning soqoliga yopishibman. Ne ko'z bilan ko'rayki, uning soqoli mening qo'lmda turardi...

Dadam uyga archa olib keldilar. Negadir uni hech kim yasatmadi. Men esa chaqqongina bo'lib, uni bir zumda yasatib tashladim. Yangi yil kirishiga oz fursat qolganda, yasatig'liq dasturxonimizning ustiga archa «gup» etib yiqilib tushsa bo'ladimi?! Qarasak, uning tagiga hech narsa qoqilmagan ekan.

Boshlang'ich sinfda o'qib yurgan kezarim edi. Maktabimizda archa bayrami o'tkazilayotgandi. Qorboqo hammaga sovg'a tarqatib, bolalarni mamnun qilayotgandi. Birdan qayerdandir paydo bo'lgan Yalmog'iz Qorqizni supurgisiga o'tqazib olib ketmoqchi bo'ldi. Qorqiz hamma bolalardan yordam so'rardi. Yaqinlashgan bolalarni esa Yalmog'iz turtib tashlardi. Shu payt bizdan nariroqda turgan «shvabra»ga ko'zim tushib qoldi. Uni olib, bor kuchim bilan Yalmog'izni savalay boshladim. Meni zo'r-g'a ajratib olishdi. Ne ko'z bilan ko'rayki, yalmog'iz kiyimida sinfdoshim yig'lab o'tirardi.

Kamola ERGASH qizi.

«PAQ-PUQ»LAR KAMAYDI

Avvalgi yillari kuzning so'nggi oyi boshlanishi bilan ko'cha-ko'yda pirotexnik vositalarning paqillashi boshlanardi. Paqillatayotganini sezib qolsangiz, o'zingizni tutib qolasiz, agar bexosdan orqavorotdan tashlab qolishsa-chi, yurakni changallab qolish ham hech gapmas. Bu yil dekabr oyini ham tinchgina o'tkazayotgan kattalar hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan tadbirlardan xursand. Chunki qonunga xilof ravishda keltirilayotgan pirotexnik vositalarni bojxona xodimlari vaqtda ushlab, osoyishta hayotimizga o'z hissalarni qo'shishmoqda. Biz ana shunday yurt posbonlarimizdan xursandmiz.

Vazira HAYDARQULOVA, Jizzax viloyati, Jizzax tumanidagi 2-son akademik litseyining 1-kurs talabasi.

Bayramlar ichida eng ajoyibi Yangi yil hisoblanadi. Uning kirib kelishini barchamiz intizorlik bilan kutamiz. Uylarimiz, xonalarimizni turli zar qog'ozlar-u o'yinchoqlar bilan yasatishga harakat qilamiz. Yaqinlarimiz uchun turli-tuman sovg'alar tayyorlaymiz. Sovg'a uchun tabrik qog'ozini albatta sotib olish shart emas, tasavvurimizni ishga solsak bo'lgani. Oq qog'ozga qish manzarasini chizib, uni qog'ozdan yasalgan mitti qorparechalar bilan bezasangiz bo'lgani. Shuningdek, archangizning o'yinchoqlari sinib qolgan o'yinchoqlarini ham bo'lsa, aslo xafa choylardan qolgan yordamida chiroyli archa yasashingiz mumkin. O'z o'yinchoqlaringiz nafaqat o'zingizni, balki ota-onangizni ham xushnud etishi tayin.

Yangi yilga oz qoldi. Shuning uchun ham eski yilda bitira olmagan ishlaringizni tezroq bitirishga harakat qiling, gina-kuduratlarni bir chekkaga surib qo'yib, barchaga yaxshi tilaklar tilang. Axir Yangi yilni yaxshi niyatlar bilan kutib olishga nima yetsin?

Hilola USMONXO'JAYEVA, poytaxtimizdagi 13- maktabning 8-«V» sinf o'quvchisi.

Chor-atrofni qalin qor qoplagan. Kun ancha sovuq. Maktabdan qaytayotgan edim, uyimizning panjarasiga qo'nib turgan 2 ta musichaga ko'zim tushib qoldi. Ularga yordam bermoqchi bo'lib, kattakon qutining ustiga bir burda nonni maydalab, kichkina idishda suv qo'ydim. Ertasi kuni maktabdan kelib qarasam, musichalar yangi uylariga galma-galdan uchib kelishib, o'z tillarida nimalarnidir muhokama qilishayotgan ekan. Har kuni ularning uychasiga non va suv qo'yishni kanda qilmadim. Oradan o'n-o'n besh kuncha vaqt o'tib, ona musichaning tuxum bosib yotganini ko'rdim. U hech qayerga jilmas, jufti esa tumshug'ida unga ovqat tashir edi. Oyimni musichalarga rahmlari kelib, pishirgan ovqatlaridan sovutib berdilar va musichalar yaxshi qushlar, ular issiq o'lkalarga uchib ketmasdan, yurtimizda yashab qolishadi. Shu yerda polaponlarini uchirma qilishadi, bermagin, deya ularga hech vaqt ozor ta'kidladilar. Oyim kichkina polaponlarni ko'rib biroz vaqt o'tgach, inda qoldim. Ularning onasi inida yo'q edi. Shu payt ukam qiziqsinib ularga suv bermoqchi bo'lgan edi, ona musicha uchib kelib bunga qarshilik ko'rsatdi. U iniga qo'nib bolalarga ovqat bera boshladi. Polaponlar esa jazzi tumshuqchalarini cho'zishib, ovqatga intilishardi. Endi ona musicha bolalarini uchirma qilishga tayyorlay boshladi. Ularni galma-galdan uchishga o'rgatayapti. Biz esa ikki dona musichamiz to'rtta bo'ldi, deya quvonchimizni ichimizga sig'dirolmasdik.

(Hikoya)



Kamoliddin HAMDAMOV, Toshkent shahar, Sobir Rahimov tumanidagi 241-maktabning 9-«D» sinf o'quvchisi.

BIZNING KO'CHAGA RAHMAT



Bir zumda darvozasining oldida ayvonchasi bor uyning yoniga yetib keldim. Qo'ng'iroqqa bo'yim yetmaydi, shuning uchun velosipedimni jingirlatdim. Eshikni ochishmadi.

Velosipedimni choptirib haydab, temir darvozaga urildim. Yana eshik ochilmadi. Endi yerga tushib qo'lim bilan temir darvozani gursillatib urmoqchi bo'lganimda, Hoji buvimning kim degan ovozi eshitildi.

- Qizillar,-dedim.
- Qizillar yo'qolib ketgan-ku.
- Unda bosmachilar!
- Bosmachilar qoptimi endi?
- O'zimiznikilar.
- O'zimiznikilar bo'l-sa, ochaman!

Hoji buvijon sharaqlatib temir darvozaning ikki tabaqasini ochib yubordilar. Men yana velosipedim bilan to'ppa-to'g'ri katta hovliga kirib bordim-da, yerga tushib ularni achomlashga oshiqdim. Birdan buvimning «Qattiqqo'l Hoji buving», degan gaplari esimga tushdi-yu, boshimni silab turgan qo'llarini ushlab, dedim:- Qo'llaringiz yumshoq ekan-ku!

- Endi yumshab qoldi-da, bolam.

- Ikki kelin, tog'alaring-u Gulchehra, Gulnora nabiralarim qo'limni sovuq suvga urdirmagach, yumshab qoladi-da.

- Bir paytlar qattiq bo'lgandi, deng oyi, - deb kulib buvijonim kirib keldilar. Keyin Hoji buvimning yumshoq yuzlaridan o'pib, meni ham quchoqlab oldilar. Ikkala buvimning shirin hidlari menga yoqib ketdi-da, velosipedimning orqasida turgan anor esimga tushdi. Anorlarni olib buvimga berdim. Ammo sochiq boylanmagan ekan, qip-qizil anorlar hovlining har tarafga dumalab ketdi. Stol ustidan laganni olib, men ham buvijonlarim bilan anor terishga tushib ketdim. Shu payt oyog'imga urilib, bittasi darvozadan tashqariga chiqib ketsa bo'ladimi? Kelgan tarafimga chopdim. Ortimdan ikkala buvim quvib kelishdi.

-Chiqma ko'chaga! Mashina kelib qoladi!

Qayoqda mashina, men bobojonim o'tiradigan tosh o'rindiqqa chiqib olmoqchi edim. To'g'ri, ularni ko'rmaganman. Lekin, buvim «Shavkat tog'angga o'xshardi», deganlari uchun chollarni ko'rsam, Shavkat tog'amga o'xshaydimi, deb qarayman. Faqat tog'angga oq soqol qo'ysak, bo'ldi-da! Bobongning

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.)

o'zi bo'ladi-qoladi, deb aytgandilar buvim. Bobom shu yerda uzoq-oq o'tirar ekanlar. O'rindiqni ham shu tog'am yasab berganlar. Uning ustida doimo yumshoq ko'rpacha solingan bo'ladi.

Ko'chadan o'tganlar, hormang Murod buva, deb so'rashar, devorlarga chirmashib ketgan so'ridagi uzumlar haqida uzoq gaplashishar ekan. «Uzum yeyman desang, novdasini uzun kes! Shunda yana hosili ko'payadi», deb yoki «Sigirga odamdek gapir, seni tushunmasa, mana, men kafil! Axir shu sigirimning onasi mashinam ovozi ham tanirdi. Ko'chamizga burilishim bilan mo'-o'lab, uyda-gilarga o'zining borligini bildirardi. Darrov uydagilar tertiga qarab, somonini ivitib harakatga tushib qolisharkan», derkanlar. Bu gaplarni buvijonimdan eshitganman. Yana kattaligi kallamdek novvotrang atirgulni ham bobom parvarishlaganini aytganlar.

«Navoiy zamonida atirgul soyasida namoz o'qisharkan. Demak, atirgullar daraxtdek bo'lib ketarkan-da!»

MUROD MORYAK

Shu payt ko'zim darvozaga ilingan taxtakachga tushdi. Unda «Bu yerda urush qatnashchisi yashaydi», deb yozib qo'yilganini tog'amning o'g'li Bekzod akam menga

o'qib berganlar. Ha, bobom urushga borganlar. Ergash akalari yo'qolib ketib, Turob akalari qo'ltiqayoqda uyga kirib kelganlarida chiday olmabdilar. Hamro buvimiz, senlarni otasiz o'stirdim, sen bormay qo'ya qol, desalar ham baribir yoshlarini katta qildirib, urushga ketgan ekanlar. O'rmonda o'qlar vizillab uchganida, voy oyi, voy-dod, aka, deb yig'lab to'rt tarafga chopib yuribdilar. Shu payt bir tanishlari nuqul qo'lini dushman o'qiga to'g'rilmish. Yengil yaralanib, maqsadi - «gospital»ga tushib olish ekan-da! Bobom bundan botir bo'lib ketibdilar. Nima maqsadda urushga kelganlarini o'ylab, hech narsadan qo'rqmaydigan bo'lib qolibdilar. Keyin ularni razvedkachi qilib qo'yishibdi. Qonga to'lib oqqan daryodan suzib o'tib, dushmanlarni qiyratganlari uchun o'rtoqlari «Murod moryak», deb atabdi. Hozirgacha buvimni mahallamizdagi katta odamlar «Moryakning qizi», deyishadi. Bobom bir kuni yana dushmanlar haqida xabar topib kelaman, deb borsalar, samolyot boshlaridan o'q yog'dirib o'tibdi. Ko'zlarini ochsalar, siniq taxtalar orasida, bir uyning yerto'lasida yotganmishlar. Suv ichgilari kelibdi. Turaman desalar oyoqlari ishlasmish, sudralib borib qor yalabdilar. Stol ustida yarimta non turgan ekan, qo'llarini cho'zib nonni olibdilar. Shu payt nemischa gaplarni eshitib qo'rqib ketibdilar. Keyin yana o'sha yerto'laga berkinib olibdilar. Dushman tovushlarini bemalol eshitib, uch kun o'sha nonni yeb, qor yalab yashabdilar. Keyin o'zimiznikilar kelib, binoni ulardan tozalabdi. Bobomni «gospital»ga olib ketishibdi.

- Nimalarni o'ylab, nimalarni so'ylab qolding, Abdumajid? Kel, uyga kirmay shu yerda biroz gaplashib o'tiraqolaylik!

Hoji buvijonimning gaplari



Umida ABDUJAZIMOVA

menga juda yoqib ketdi. Shuning uchun anor solingan laganni boshimda ko'tarib, darrov ularning oldiga yetib keldim. Shu tomi bor darvoza oldiga yetkuncha menga har xil voqealar-u hikoyalar hadya etgan shu ko'cha undan ham yaxshiroq va yaqinroq edi. Bobojonim kabi tosh o'rindiqda, buvijonlarim o'rtasida o'tirib oldim-da, qo'limni duoga ochdim. Chunki Hoji buvim bizlar kelishimiz bilan qo'llarini keng ochib, «o'tirgan o'mimiz yo'qolmasin, Abdumajid ham katta yigit bo'lsin», deyidilar-da:

- Bolalari ham,
- Pullari ham
- Ko'paysin!
- Bizlarniki ham!

Biz bobojonimning gaplarini baralla takrorladik va uzoqdan buvilarni qarshisiga kulib kelayotgan bir amaki bilan ko'rishishga chog'lanayotganlarini ko'rib, men sizlarga keyinroq o'sha amaki haqida gapirib

beraman, deb birinchi kitobimni tugatdim. Qalay, o'qishda zerikmadingizmi? Buni men aytdim, buvim sizlarga yozib berdilar. Yozishni o'rganib olgunimcha Sizning yozganlaringizni menga o'qib berishadi. Men ham zerikib qolmasligim uchun tezroq xat yozing. Shunday qilib, gap tamom-vassalom deyishga hech shoshilmay turibman. Endi sizlardan ham eshit-a-a-y-da!



(Tamom.)

Sizning fikringiz.

O'QUVCHILARI GAZETXON MAKTAB



Men Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi 38-maktabda tahsil olaman. Maktabimiz boshqa bilim maskanlaridek zamonaviy sharoitlarga ega bo'lmasa-da, iqtidorli, ilmga chanqoq o'quvchilarimiz juda ko'p. Chunki sidqidildan saboq berayotgan o'qituvchilarimiz bilimdon, mehribonlar-da. Bizlarda kitobxonlikka, gazetxonlikka havas uyg'otganlar ham ana shu ustozlarimizdir.

Obuna mavsumi qizg'in davom etayotgan ayni kunlarda o'qituvchi

va o'quvchilarning gazeta xususidagi fikrlari bilan qiziqdim:

Zulfiya XO'JAYEVA, ilmiy bo'lim mudiri:

-Maktabimizda tahsil olayotgan 973 nafar o'g'il-qizning 150 nafari, ya'ni 5ta sinf o'quvchilari «Tong yulduzi»ga obuna bo'lishdi. O'quvchilarimizning butun sinf bo'lib gazetaga obuna bo'lish tashabbusi bilan chiqishayotgani bizni juda quvontiryapti. Zero, kitob, gazeta o'qigan bolalarda yomon illatlar bo'lmaydi...

-Yana, bu gazeta sahifalarida chop etilayotgan maqolalar hozirgi kunning dolzarb mavzulariga juda mos keladi, -deya suhbatimizga qo'shildilar sinf rahbarimiz Qahramon aka Eshonxo'jayev. -Yoshlarimiz mana shunday nashrlarni ko'proq o'qishlarini istardim. Chunki u inson ongini oshirish va so'z boyligini ko'paytirishga yordam beradi. Bilimdon va zukko o'quvchilar esa yurtimiz ertasidir.

Nilufar RIXSIYEVA, 9-sinf o'quvchisi:

- Har yili sinfimiz bilan bu gazetaga obuna bo'lamiz va yangi sonini intiq kutamiz. Kutubxonachimiz gazetani olib kelishlari bilan qo'lma-qo'l bo'lib ketadi, ba'zan talashib ham qolamiz. Undagi krossvordlarni birgalikda yechamiz. Boshqalarni bilmadim-u, gazeta menga juda yoqadi.

Zamira MAGDIYEVA, 11-sinf o'quvchisi:

- «Tong yulduzi» menga ham yoqadi. Uning ko'magida respublikadagi tengdoshlarimiz hayoti bilan tanishamiz. Gazeta sahifalarida «Bilag'onlar bellashuvi» yoki biror boshqa nom bilan qiziqarli savollar berib borilsa yaxshi bo'lardi. Ularga javob yozish maqsadida o'qimagan kitoblarimizni o'qib, bilimimizni boyitardik.

Aziza NABIYEVA yozib oldi.

TAHRIRIYATDAN:

Bu bir maktab o'quvchilari hamda o'qituvchilarining sevimli gazetalari haqida aytganlari. Xo'sh aziz gazetxonlar, «Tong yulduzi» haqida Sizning fikringiz qanday?

Taklif va mulohazalaringiz gazetaning kelasi yilgi sonlarini tayyorlashda bizga juda asqotadi.

SHIRINTOY IZLANISHDA

Bog'cham - ovunar joyim


Samarqand viloyati, Urgut tuman Xalq ta'limi bo'limiga qarashli «Shirintoy» nomli maktabgacha ta'lim muassasi 1950-yilda tashkil topgan bo'lib, tumandagi eng ilg'or maskanlardan biri hisoblanadi. Mavjud 9ta guruhda 160 nafarga yaqin jajji kichkintoylar ta'lim-tarbiya olib kelmoqdalar. «Uchinchi ming yillik bolasi dasturi» asosida ish olib borayotgan maskanda jajjilarning yayrab kamolga yetishishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. O'tkazilayotgan kundalik va har oyda bir marta bo'layotgan ochiq mashg'ulotlar o'z samarasini bermoqda.



- Bog'chamizda «Sog'lomjon - Polvonjon», «Sevimli o'yinchoq», «Til - dil kaliti», «Yangi yil ertaklari», «Vatan himoyachilari kuni», «Onajonlar bayrami», «Navro'zi olam», «Xayr, bog'chajon!» kabi qiziqarli tadbirlarni yil davomida muntazam ravishda o'tkazib boramiz. Maktabgacha ta'lim maskanlari bo'yicha tumanda o'tkazilgan «Sog'lomjon - Polvonjon» tanlovida I o'rinni egallagan bo'lsak, ushbu tanlovning viloyat bosqichida III o'rinni qo'lga kiritdik.

Maskanimizda mavjud «Milliy raqs to'garagi», «Karate», «Ingliz tili», «Badiiy gimnastika» kabi to'garaklarda bolajonlarimiz muntazam ravishda shug'ullanadilar.

O'zimiz qo'lda yumshoq o'yinchoqlar tikib, kichkintoylarga har oyda turli ertaklar asosida «Qo'g'irchoq teatri» tomoshalarini namoyish qilamiz. Maskanimizda mehnat qilayotgan M.Meliyeva, G.Rashidova, A.Saidmurodova, T.Rajabova, G.Temirova kabi tarbiyachilarimizning shirinso'zligidan bolajonlar va ularning ota-onalari mamnun bo'lishmoqda, -deydi biz bilan suhbatda muassasa mudirasi Shohista Ahmedova.



Ushbu maktabgacha ta'lim muassasida tarbiyalanayotgan kichkintoylarga yaratilgan shart-sharoitlarni o'z ko'zimiz bilan ko'rib, Shohista opa yetakchiligidagi jamoaning olib borayotgan ibratli ishlariga omadlar tiladik.

Salimjon
AZAMAT.

NEGA OYOQNI ISSIQ QILAMIZ?

Ko'p dardga asos,
Shamollash xolos.

Tengdoshlaring ijodi

Po'lat MO'MIN.

Qish faslini barcha birdek yaxshi ko'radi. Ayniqsa, bolajonlar. Axir ko'cha-ko'yda qorbo'ron o'ynab, qorbobo yasashga nima yetsin. Ko'chaga chiqayotganimizda albatta onajonlarimizning oyoq kiyimimni issiq qildingmi, degan so'zlarini bot-bot eshitamiz. Nima uchun oyoq kiyimimni issiq qilishim kerak ekan? Hozir ham ko'pchilik bolalarimiz shunday deyishlari tabiiy.

Qishning qorli, yomg'irli kunlarida havo sovuq, shu bilan birga yer ham zax bo'ladi. Agar oyoq kiyim issiq bo'lmasa, oyoqdan sovuq o'tadi. Bu hol ko'p bor takrorlanaversa, turli kasalliklarga olib keladi. Oyoq shamollashi butun bir organizmga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Avvalo harakat normasi buziladi. Bu esa butun vujudning sog'lig'iga ziyon yetkazadi. Chunki tananing barcha og'irligi oyoqqa tushadi. Bir so'z bilan aytganda, issiq kiyinib, avvalo oyoq kiyimimizni issiq qilib yurishimiz biz uchun foydadir.

Dilfuza MAHKAMOVA,
Jizzax viloyati, Jizzax shahri.

QOR

FASLI KUMUSH

Yana kirib keldi kumush qish,
Ko'kdan yog'ar oppoq laylak qor.
Garchand sovuq bo'lsa-da qishning,
Sehri zo'r tarovati bor.

Qor ostida tin olar zamin,
Oppoq rangga kirgan har tomon.
Bolajonlar shodon qiyqirib,
O'ynashadi endi qorbo'ron.

Ertalab tursam,
Hovli oppoq qor.
Ko'chaga chiqsam,
Go'yo paxtazor.

O'ylanib biroz,
Otlandim darrov,
Do'stlarim bilan,
O'ynadik uchchov.

Qorbobo yasab,
Quvnadik rosa.
Qaniydi ko'proq,
Oppoq qor yog'sa.



Abdulaziz
MAMADALIYEV,
Andijon viloyati, Baliqchi tumani.

Islom RAHMATULLAYEV,
Toshkent shahridagi
229-maktabning 4-«V» sinf o'quvchisi.





YANGI YIL QACHONDAN BOSHLANGAN?

Rossiyada avval Yangi yil 1-sentabrda nishonlangan ekan. 1700-yil Petr I Yangi yilni 1-yanvarga ko'chirgan ekan.

ARCHANI KIM BEZAYDI?

Yangi yil bayramida archa bezash an'anasi ilk marotaba bundan uch yuz yil muqaddam Germaniyada paydo bo'lgan. Undan avval odamlar uylarini turli o'yinchoqlar bilan bezatishardi, xolos.

KIM ETIBORLI?

Bu borada amerikaliklar doimo birinchi o'rinda turichadi. SHunki ular dunyoda Yangi yil tabriknomalarini va sovg'alarini jo'natishda juda faol ekanlar.

x x x

Angliyada bolalar stolga sovg'a uchun likopchalarni qo'yib qo'yisharkan. Botinkalariga esa somon solib, eshaklarini qutlasharkan. Yana, bayram kechasi qo'ng'iroq 12 marta bong urib, barchani Yangi yil madhiyasini aytishga chorlarkan.

x x x

Fransiyada «Rojdestvo» bayrami 6-dekabrda boshlanib, Per Noyel tarbiyali bolalarga sovg'a-salom ulasharkan. U yog'ochdan ishlangan boshmoqda, sovg'alar solingan savat bilan uyning qo'rasidan tushib kelarkan-da, kamin (isitish moslamasi) tepasiga ilingan paypoqchalarda o'z sovg'alarini qoldirarkan.

Bir necha yuz yilliklar avval Qorbobo Laplandiyada paydo bo'ldi. Bu o'lkada yilning to'rt fasli o'z vaqtida bo'lib, qishning dekabr, yanvar oylarida tungi g'aroyibotlar - Kaamos mavsumi bo'lardi. Ana shu yerda betakror go'zal tabiat qo'ynida, oppoq qorlar uzra sehrli qahramon istiqomat qilardi.

Yerlik Saam xalqi uning uchun ham o'rmon qiroli

bu qahramon o'rmon-

ganlarni to'g'ri yo'l-

muruvvatlaridan

Oppoq soqolli

burunli bo'lib,

qalpoq va ki-

edi. Finlyan-

bolalar o'z

Klausini

chegaradosh hududda

quloqda yashaydi deb tasavvur

haqiqatan ham katta quloqni

qaysi bir bola chin dildan orzu qilsa,

Santa-Klaus eshitadi deyishadi. Aslida IV asrda Kichik Osiyoda muqaddas

Nikolay - Sehrar (katoliklar muqaddas Nikolas yoki Klaus deyishgan) yashab

o'tgan bo'lib, u atrofdagilarga faqat saxovat ulashgan, savob ishlarni qilgan.

Ana shu insonning siymosi asosida yangi qahramon - Santa-Klaus vujudga

keldi. Uni yana Qor-Ota, Shen Dan Laojen, Per Noyel, Mikalaus Fazer

Kristmas, Veynasman, Yolupukki degan ismlari ham bor. Fin tilidan Yolupukki

«rojdestvo echkisi» deb tarjima qilinadi. Ana o'sha davrlarda «rojdestvo»

arafasida faytun tortgan bug'ular uyma-uy yurib, «Bu yerda aqlli bolalar

bormi?» deya sovg'alar ulashgan ekan. Afsuski, bugungi kunga kelib ana

shunday tarbiyaviy gap-so'zlar yo'qolib ketdi, aksincha, eng sho'x o'g'il-

qizlarni sovg'a bilan siylab, biroz hovuridan tushiradigan bo'lib qolishgan.

bag'rikengligi, saxiyligi

deb atashardi. Ush-

da adashib qol-

ga solar, o'z

ulashar edi.

sehrar qizil

qizil rangli

y i m d a

diyalik

Santa-

Rossiya bilan

«Gore-uxo», ya'ni Tog'sifat

qilishadi. Bu hudud

eslatardi. Shu sababli ham

uning niyatini albatta

«Gore-uxo», ya'ni Tog'sifat

qilishadi. Bu hudud

eslatardi. Shu sababli ham

uning niyatini albatta

«Gore-uxo», ya'ni Tog'sifat

qilishadi. Bu hudud

eslatardi. Shu sababli ham

uning niyatini albatta

«Gore-uxo», ya'ni Tog'sifat

qilishadi. Bu hudud

eslatardi. Shu sababli ham

uning niyatini albatta

Muharrama PIRMATOVA.



YANGI YIL KROSSVORDI

Bo'yiga: 1. Yangi yil xabarchisi. 3. O'zbek xalq dostoni. 4. Yer sharining Shimoliy qutbi hududi. 6. Daraxtzor maskan. 7. Qahramonlar murod-maqсадlariga yetuvchi asar. 10. Bahor oyi. 11. Musiqasi asbobi.

13. Darbozlar tomosha ko'rsatishda qo'llaydigan moslama. 14.

Birga tug'ilgan bolalar. 16. Yog'inning samodagi holati. 17. Dun-

yoda ommalashgan milliy sportimiz. 18. Faoliyat olib borish-

dagi shart-sharoit. 19. Shirin janub mevasi. 23. Dunyoda

ilk taqvim yuzaga kelishiga sababchi bo'lgan basho-

ratchilar. 25. Voqea-hodisadan holilik. 28. Tansiq

taom. 31. Shaffof rangdagi oyna kesuvchi ma'dan.

32. Vaqtli nashr turi. 33. Yoz fasli oyi. 34. Sport

sovrini. 35. Hurlik, istiqloq. 37. G'alla ekini.

39. An'ana, urf-odat. 41. Ikki elektrodli

elektron lampa. 43. Yangi yil bezagi. 48.

Ho'l meva. 50. Ko'cha. 51. Yorug'lik, ziyo.

52. Vaqt o'lchovi birligi. 53. Tomon. 54.

Kichik o'g'il.

Eniga: 2. Yog'in, qish ko'rki. 5. Qutb

hududlari yaqinida suzib yuruvchi muztog'. 8.

Istak. 9. Bezakli bayram shirinligi. 12.

Ertaklarimizda bo'ringa vazifasi. 14. Zaminning

kecha-kunduz hamisha teng bo'luvchi hududi. 15.

Bolgariyalik taniqli bashoratchi ayol. 20. Qizg'in

suhbat. 21. Ertakdan «... va Qimmat». 22. Katta

farzand. 24. Boshqirdiston poytaxti. 26. Zamonaviy

estrada san'ati. 27. Eng ulug' zot. 29. Qattiq jism.

30. Dasturxon bezagi. 32. Bilimdon, tadbirkor

ayol. 35. Xalq. 36. Torli qadimiy musiqa

asbobi. 38. Sovg'a, tuhfa. 40. Sport zalida

o'ynaladigan to'pli musobaqa. 42. Xabar,

turli ma'lumotlar berishda qo'llanadigan

shartli belgi. 44. Elektron zaryadi bo'lgan

atom. 45. Obi-hayot. 46. Ajdodlardan avlod-

larga qolgan moddiy va ma'naviy boylik. 47.

Bo'yoq turi. 49. Bino, xona. 51. Puflama cholg'u

asbobi. 53. Yer yo'ldoshi, samo jismi. 55. Niyat,


tilak. 56. Yil fasli. 57. Yangi yo'sindagi

astronomiya fani asoschisi, sayyoralar

harakati qonunini ishlab chiqqan o'rta asr

nemis olimi. 58. Mo'jaz, hajviy asar.

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV.



TONG yulduzi

BOSH MUHARRIR:

Umida

ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV

(O'zbekiston Xalq ta'limi vaziri),

Dilbar ALIMJONOVA

(«Sog'lom avlod uchun»

hukumatga qarashli bo'lmagan

xalqaro xayriya jamg'armasi

ijrochi direktori),

Qahramon QURANBOYEV

(«Kamolot» YOIH markaziy

kengashi raisi o'rinbosari),

Jabbor RAZZOQOV

(«O'zbekiston» NMIU bosh

muharrir o'rinbosari),

Dilmurod RAHMATILLAYEV

(Andijon viloyati Xalq ta'limi

boshqarmasi boshlig'i),

Dilshoda DADAJONOVA

(Namangan viloyati Xalq

ta'limi boshqarmasi boshlig'i),

Feruza JALILOVA

(Bosh muharrir o'rinbosari),

Sobirjon SHARIPOV

(Xorazm viloyati Xalq ta'limi

boshqarmasi boshlig'i),

Nurxon NAFASOV

(O'zbekistonda xizmat

ko'rsatgan sport ustasi),

Ergashvoy SARIQOV

(Iqtisod fanlari doktori).

Gazeta O'zbekiston

matbuot va axborot

agentligida

022-raqam bilan 2003-

yil 11-dekabrda

ro'yxatdan o'tgan.

Noshir:

«O'zbekiston»

nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

Gazeta

«O'zbekiston»

nashriyot-matbaa ijodiy uyi

kompyuter bo'limida terib

sahifalandi va chop etildi.

Gazeta haftaning dushanba

kuni chiqadi. Hajmi A-3,

2 bosma qaboq.

Adadi - 16864

Buyurtma N: J 3148

Dizayner va

sahifalovchi:

Fazliddin

SHOYODGOROV

Navbatchi:

Jamila

ERDONOVA

Rassom:

Nodira MIRZAYEVA

Manzilibiz:

700129,

Toshkent shahri,

Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Obuna indeksi: 198.

e-mail:

tong1924@mail.ru

Tel: 144-27-25

144-63-08

Tel./ faks:

(99871) 144-38-10